

SPECIAL ISSUE

VOLUME II | ISSUE 3 | MAY-JUNE

Journal of Culture and Art

**КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ**

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

IMFAKTOR
Science driven pages

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР 3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE 3

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.*

*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.***

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

IBODULLAYEV Azizbek Maxsudbek o'g'li*Yunus Rajabiy nomidagi**O'zbek milliy musiqa san'ati instituti**"O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi"**kafedrası*<https://doi.org/10.5281/zenodo.11178168>

KOMPOZITOR ABDUSHARIF OTAJONOVNING 100 YILLIK YUBILEYI NISHONLANDI. IJODKOR QALBLARDA MANGU BARHAYOT

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kompozitor Abdusharif Otajonov va Bikajon Raximovalarning o'chmas xotirasi haqida so'z boradi. Abdusharif Otajonovning bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotida tutgan o'rni, teatr san'ati rivojiga qo'shgan xissasi, Bikajon Raximovaning o'chmas xotirasi xususida zamondoshlari, shogirdlari, oila a'zolari bilan xotiralar bayon qilinadi. Maqolada ijodkorning shaxsiy sifatlari va asarlar ro'yxati bilan ham tanishishingiz mumkin. Umrboqiy ijodkorning 100 yillik yubileyiga bag'ishlanib o'tkazilgan xotira kechasi haqida ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: kompozitor, Abdusharif Otajonov, Bikajon Raximova, Muhammad Otajonov, teatr, musiqali drama, qo'shiq, bastakorlik.

ОТМЕТИЛИ 100-ЛЕТИЕ КОМПОЗИТОРА АБДУШАРИФА ОТАДЖОНОВА. ЖИЗНЬ В ТВОРЧЕСКИХ СЕРДЦАХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о неизгладимой памяти композиторов Абдушарифа Отажонова и Бикаджон Рахимовой. Роль Абдушарифа Отаджанова в творчестве композитора и композитора, его вклад в развитие театрального искусства, неизгладимая память о Бикаджон Рахимовой будут переданы его современникам, ученикам, членам семьи. В статье вы сможете познакомиться с личными качествами художника и списком работ. Появилась информация о памятном вечере, посвященном 100-летию вечного артиста.

Ключевые слова: композитор, Абдушариф Отажонов, Бикаджон Рахимова, Мухаммад Отажонов, театр, музыкальная драма, песня, композиция.

THE 100TH ANNIVERSARY OF COMPOSER ABDUSHARIF OTAJONOV WAS CELEBRATED. LIFE IS IN CREATIVE HEARTS

ANNOTATION

This article talks about the indelible memory of composers Abdusharif Otajonov and Bikajon Rakhimova. The role of Abdusharif Otajonov in the creativity of composer and composer, his contribution to the development of theater art, and the indelible memory of Bikajon Rakhimova will be told with his contemporaries, students, and family members. In the article, you can get acquainted with the artist's personal qualities and list of works. There is information about the commemorative party dedicated to the 100th anniversary of the eternal artist.

Keywords: composer, Abdusharif Otajonov, Bikajon Rakhimova, Muhammad Otajonov, theater, musical drama, song, composition.

Inson umri shamolday o'taveradi. Ammo xalq uchun mehnat qilgan, xalqning ertasi uchun yashagan kishilar xotirasi qalbimizda mangu yashaydi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, sozanda va kompozitor Abdusharif Otajonov ham anashunday fidoiy ijodkorlardan biri edi. Abdusharif Otajonov hayot bo'lganida bu yil 100 yoshni qarshilagan bo'lishar edi.

2024-yil 8-aprel kuni Ogahiy nomidagi Urganch musiqali drama teatrida O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, Xorazm viloyati hokimligi Madaniyat boshqarmasi, Xorazm viloyat teleradiokamponiyasi hamda Urganch ixtisoslashtirilgan san'at maktabi tashabbusi bilan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, kompozitor, sozanda, dirigor Abdusharif Otajonov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan xotira kechasi bo'lib o'tdi. Tadbirda san'atkorning oila a'zolari, shogirdlari, sozanda va xonandalar, viloyatdagi mavjud madaniyat bo'limlari, bolalar musiqa va san'at maktablarining o'qituvchilari, san'at ixlosmandlari ishtirok etdilar. Tadbir davomida kompozitorning shogirdlari, hamkasblari va oila a'zolari so'zga chiqib Abdusharif Otajonov va Bikajon Raximovalar haqida eslashdi.

Sahnada Xorazm viloyat musiqali drama teatri, Urganch ixtisoslashtirilgan san'at maktabi san'atkorlari ijrosida kompozitor asarlaridan namunalar ijro etildi. Kompozitor portreti hamda to'rtta musiqali dramalarining ilk video tasmlarga yozib olingan variantlari sovg'a qilindi. Abdusharif Otajonov shaxsiy hayoti va ijodiy yo'liga nazar tashlaydigan bo'lsak, u 1924-yilning 1-yanvarida Xorazm vohasining Xiva shahrida sozandalar oilasida dunyoga keldi. Uning bobosi Xiva xonligida Masharif surnaychi nomi bilan yaxshi tanilgan edi.

Otasi Otajon ota esa "sozchi" nomi bilan tanilgan. Abdusharif Otajonov 1932-yili boshlang'ich o'rta ta'lim maktabida, so'ngra yoshlar maktabida o'qidi. O'zining ijrochiligi bilan obro'-e'tiborga ega bo'lgan 15 yoshli Abdusharif 1939-yili Xiva shahridagi viloyat kolxoz-sovxozi teatriga ishga taklif qilingan. Teatrda ishlab yurgan paytlarida Abdusharif shu tatr aktrisasi Bikajon Raximovani sevib qoladi va unga uylanadi. Afsuski, Abdusharif Otajonovning Bikajon Raximova bilan baxtli kunlari uzoq davom etmaydi. 1942-yili A.

Otajonov harbiy xizmatga chaqirildi. Va Kaligan, 2-Belorussiya frontlarida jang qildi. 1944-yilda jangda bir oyog'idan ajralib, 1945-yili o'z vataniga qaytdi. 1945-1951-yillarda Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrida sozanda, musiqa bo'limi maslahatchisi bo'lib ishladi. 1955-1959-yillarda Xiva musiqa maktabi direktori va Xiva teatrida musiqa bo'lim boshlig'i. 1961-1973-yillarda esa shu teatrning direktori va dirigori lavozimlarida faoliyat olib bordi. Ayni damda, Toshkent davlat konservatoriyasida B.Zeydman sinfida kompozitsiya bo'yicha o'qidi. 1973-1980-yillarda M.Xarratov nomli Urganch musiqa bilim yurti direktori bo'lib ishladi. 1980-1986-yillarda Ogahiy nomli Xorazm musiqali drama va komediya teatri bosh dirigori lavozimda faoliyat yuritgan. 1944-yilda KPSS a'zosi. 1956-yil Xiva shahar deputati bo'lib ishlaydi [1].

Abdusharif Otajonovning oilasi haqida gapiradigan bo'lsak, bu oilani "san'atkorlar" oilasi deyishadi. Abdusharif akaning rafiqasi O'zbekistonda Xalq artisti Bikajon Raximova Xiva va viloyat teatrida ellik yildan ortiq ishlab 200 dan ortiq rollarda o'ynab, o'zbek xalqi e'tirofiga musharraf bo'lgan. Farzandlarida Muhammad Otajonov iste'dodli kompozitor, xalqaro va respublika ko'rik-tanlovlari g'olibi, dotsent, Turon xalqaro fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekiston davlat konservatoriyasida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Olimboy Otajonov fortepiano ijrochisi va o'qituvchisi. Ozodboy Otajonov musiqa o'qituvchisi va bayan, akkardeon ijrochisi, qizi Farog'ot bolalar bog'chasida musiqa raxbari bo'lib ishlagan.

Abdusharif Otajonovning ijodiy merosida rang-barang, turli mavzularda yozilgan qo'shiq, xor va orkestr uchun ko'p qismli musiqiy asarlar, musiqali drama va komediyalar muhim o'rin egallaydi. U o'z ijodining dastlabki davrida cholg'u musiqasiga nisbatan qo'shiqchilikka ko'proq ahamiyat berdi.

"Qo'shiqlardan: "Mehnat zavqi", "Rohati bor jonga yetishdim", "Gaz keldi, gaz", "Salom mardu-mardonlarimga", "Cho'pon yigit qo'shig'i", "Mash'al elim" kabi mehnat ardoqlovchi yoki: "Kuylaydi tabiat", "Keldi yorim qoshimga", "Kezarman", "Intizormikin", "Ayrilma mani", "Jonginam shartingni ayt", "Oshiq nolasi", "Kel, kel jonim" kabi lirik qo'shiqlar: "Biri binafsha, biri Ravshan" lirik yalla; "Sho'x oshpaz", "Pochtachiman, pochtachi", "Uzuk taqşam bilagingga", "Boboyjonim", "Aravakash" va "O'zi bilsa, bilsin", "Har kishining bo'lsa ikki xotini", "Kaminangiz komendant", "Suratchiman, suratchi" kabi hazil, satirik laparsimon aytishuvlar o'z davrida xonandalar repertuarini boyitdi.

"Shodiyona" vokal-xoreografik syuita, "Ulug' kun", xor va orkestr uchun "Ofarin" va "Oq oltin" vokal-xoreografik syuita, "Xorazm" yakkaxon, xor va orkestr uchun poema, "Mahallada to'y" va "Sumalak oqshomi" vokal-xoreografik syuita, "Zamon an'anasi-nikoh tantanasi" vokal-xoreografik syuita, "Oltin qo'llar vokal-xoreografik syuitasi, "Xorazm Yor-Yor"ini acapella xori uchun qayta ishlagan, "Avazim" Xorazm xalq qo'shig'i asosida cholg'u ansambli uchun pyesa, "Qudalar baxsi" yakkaxon, xor va orkestr uchun syuita, "Paxtakorman" yakkaxon va cholg'u ansambli uchun qo'shiq, "Aqlda donom qizlar" vokal-xoreografik syuita: aralash xor va orkestr uchun syuita, "Xorazmda bayram" vokal-xoreografik manzara va boshqalar.

Musiqali drama va sahna asarlari: "Oq nilufar", "Oshiq G'arib va Shoxsanam", "Ma'rifat qurbonlari", "Ishq bilan o'ynashma", "Kim aybdor", "Sensiz yasholmayman", "Tog' qizi", "Tosh teshar", "Ikki o't o'rtasida", "Xo'ja Nasriddin", "Mahtumquli", "Mavlono Ogahiy", "Mehribonlar", "Tuzoq", "Ali masxaraboz", "Qizlar isyoni", "So'nggi pushaymon", "Toshlar tilga kirganda", "Fotima kampirning lotareyasi", "Munozara davom etadi", "Orzu", "Javohir", "Bahor", "Bo'ronli yillar", "Shohning boshi bormidi, yo" kabi qator asarlari mavjud" [2].

Matpano ota nazoratida Xorazm maqomlarining Hojixon Boltayev va Komiljon Otaniyozov talqinida institut xodimlari tomonidan "Rost" va "Segoh" maqomining ashula bo'limlari yozib olinib, magnit tasmalariga tushurilgan. Ovoz yozish jarayonlarida Hojixon Boltayev va Komiljon Otaniyozovlar yonida Abdusharif Otajonov doirada jo'r bo'lgan [3].

Abdusharif Otajonov va Bikajon Raximovalarni tanigan, bilgan shaxslar va ijodkorlar doimo ijobiy fikr bildirishadi. Yaxshi xotiralar bilan eslashadi. O'zbekiston san'at arbobi, O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlari sohibi, kompozitor, professor, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi Rustam Abdullayev: "Abdusharif aka shunchalik darajada kuchli edilarki, doirani olin usul chalishda, rubobni ham, fortepianoni ham qoyilmoqom qilib hammamizga o'rnak bo'lgan shu darajada buyuk bir universal odam edilar.

Bikajon Raximovadek turmush o'rtoq esa buyuk davlatdir", -deya xotiralaydi. "Abdusharif Otajonov yirik bastakor, iste'dodli kompozitor, viloyatning madaniy hayotida o'ziga xos iz qoldirgan jonkuyar rahbar, menga o'xshagan ko'plagan shogirdlarning mehribon ustozlari sifatida umrbod yodimizda qolgan", -deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist "Qaldirg'och" xalq ansambli badiiy rahbari Shermet Fayzullayev.

“Abdusharif aka o‘z ijodida ayniqsa “Oshiq G‘arib va Shoxsanam” musiqali dramasida xorazm musiqasi, o‘ziga xos shevasi, jilosi va ohangini mohirona ishlatib xalqimizga tuhfa qildi. Xorazm maqomlarini notaga olishda ham katta xizmat ko‘rsatganlar. Tanti va halim odam edilar”,-deb eslaydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi professor Otanazar Matyoqubov. O‘zbekiston Xalq artisti Shirin Ramazonova “Bikajon opa Raximova mahoratli va keng qirrali aktrisa edilar.

Sahnaga chiqsalar u kishining ijrosidagi rollarni tomoshabinlar miriqib tomosha qilib xordiqalarini chiqarar edilar”,-deb xotirlaydi. Abdusharif Otajonov va Bikajon Raximovalar xotirasini yodga olib Erkin Samandarov, O‘zbekiston Xalq artisti Shirin Ramazonova, O‘zbekiston respublikasi san‘at arbobi Jo‘raqul Shukurov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Matrasul Matyoqubov, Urganch davlat universiteti professori Qadamboy Raximov, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist Nurullo Jumaniyozov, O‘zbekiston Xalq artisti Guloro Raximova, UrDU San‘atshunoslik fakulteti Musiqa ta‘limi kafedrasini mudiri Botir Raximovlar o‘z xotiralari bilan o‘rtoqlashdilar [4].

Abdusharif Otajonov 1969-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni, orden va medallar bilan taqdirlandi. 1975-yilda O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a‘zosi etib saylandi. Abdusharif Otajonov 1987-yil 5-dekabr kuni 63-yoshida vafot etdi. Xozirda Urganch shahrining ko‘chalaridan biri Abdusharif Otajonov nomi bilan atalsa, shunga qo‘shni ko‘cha nomi Bikajon Raximova nomi bilan ataladi.

Abdusharif Otajonovning o‘zbek musiqasi rivojiga qo‘shgan xissasini va hayotini, ijodini o‘rganish o‘zbek musiqasida bastakorlik va kompozitorlik uslublarining shakllanishi, O‘zbekistonda kasbona musiqaning paydo bo‘lish tarixini bilish, kompozitorlar ijodida xalq musiqasidan foydalanish uslublarini o‘rganish nihoyatda muhimdir. To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Mirsodiq Tojiyev, Mutal Burxonov, Manas Leviyev, Komiljon Otaniyozov kabi qator bastakor va kompozitorlar qatorida Abdusharif Otajonovning hayoti va ijodi musiqasi va san‘at maktablari darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarida chop etilishi zarur. Bu orqali o‘zbek bastakorligi va kompozitorligida o‘z so‘zini ayta olgan hamda uning rivojiga xissa qo‘shgan shaxs haqida yosh avlod bilishi kerak.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES

1. Ogahiy nomidagi Xorazm viloyati musiqali drama teatrining arxiv so‘rovnoma-xujjatlari. 1987-1988 yillar.
2. Otajonov. M. A. Abdusharif Otajonov. Monografiya. -T. “Musiqqa”. 2021. -77,78,79 b.
3. A. Otajonovning farzandlari, shogirdlari bilan o‘tkazilgan shaxsiy suhbatlar, ularning ijodkor haqidagi xotiralari.
4. “Xorazm haqiqati” gazetasida 1960-1980-yillarda chop etilgan teatr, musiqa san’atiga oid maqolalar

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР 3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE 3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz